

Raqamli Diplomatiya: Ijtimoiy Tarmoqlar Va Onlayn Kommunikatsiyalarning Xalqaro Aloqalarga Ta'siri

Xakimjon Abdurazzakovich Tashkuziyev¹

Annotatsiya: Maqolada raqamli diplomatiya, raqamli diplomatik faoliyatni rivojlantirish bo'yicha jahon amaliyotidan misollar, kiberdiplomatiyani amalga oshirishda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni va ro'li hamda O'zbekiston diplomatik xizmatida onlayn kommunikatsiyalardan foydalanish istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli diplomatiya, kiberdiplomatiya, internet, ijtimoiy tarmoqlar, xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat.

Kirish. So'nggi yillarda axborot texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi diplomatiya sohasida ham muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. An'anaviy diplomatik aloqalar endilikda raqamli shakllar bilan to'ldirilmoqda, bu esa "raqamli diplomatiya" deb atalmoqda. Davlatlar an'anaviy diplomatik vositalar bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda global auditoriyaga chiqish, o'z milliy manfaatlarini ilgari surish va xalqaro imijni mustahkamlashga intilmoqda. Kiberdiplomatiya davlat siyosatini ommalashtirish, siyosiy jarayonlarga imkon qadar xorijda faol fuqarolarni jalb qilish, mamlakatning ijobiy imidjini yaratish, obro'sini oshirish, dolzarb muammolar yoki vaziyatlarni jamoaviy hal etish uchun xorijiy intellektual resurslarni jalb qilish, insonlar fikrini tinglash va shu asosda jamoatchilik fikrini tahlil qilish yoki ularning xatti-harakatlari sifatini baholash hamda mamlakat va uning fuqarolari haqida tarqatilgan ma'lumotni o'rganishga imkon beruvchi aloqa vositasi vazifalarini bajaradi.

O'zbekiston ham ushbu global tendensiyalardan chetda qolmay, so'nggi yillarda raqamli diplomatiyani faol rivojlantirmoqda.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy tarmoqlar – bu yangi jamoat forumi va fuqarolar qo'lida demokratiyani takomillashtirishning yangi siyosiy vositasidir, chunki ko'pchilik real vaqt rejimida o'z fikrlarini bildiradi. Shu jihatdan, raqamli diplomatiyani hayotga samarali tatbiq etishda ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Sababi bugungi kunda aholi bilan birga diplomatik faoliyat vakillari ham ijtimoiy tarmoqlarning faol ishtirokchisi hisoblanadi. Bu esa zamonaviy diplomatik faoliyat xodimlari ijtimoiy tarmoqlarda o'zlarining rasmiy sahifalariga ega bo'lishlari va ularda doimiy faollik ko'rsatishlarini talab etadi.

Davlatlar tomonidan raqamli makondan foydalanishning yana bir afzalligi, xususan, ijtimoiy tarmoqlar boshqa mamlakatlar fuqarolari bilan deyarli real vaqt rejimida muloqot qilish imkoniyatidir, bu esa faolroq va yaqinroq o'zaro hamkorlikni va natijada diplomatiya maqsadlariga erishishni nazarda tutadi.

So'nggi izlanishlarga ko'ra, bugungi kunda insoniyatning 63% qismi internetdan foydalanishi qayd etilgan. Shu jumladan, taxminan 1 yillik davr ichida internetdan foydalanuvchilar soni 200 millionga ortgan. 4,65 milliard foydalanuvchi ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanishadi. Dunyo bo'yicha oladigan bo'lsak, 3 milliarddan ortiq kishi turli xildagi messenjerlardan foydalanishadi. Eng ko'p foydalaniladigan platformalar Facebook hamda WhatsApp hisoblanib, 2,5 milliarddan ortiq kishi foydalanishadi.

¹ xakimjonabdurazzakovich@gmail.com



Hozirda dunyo bo'ylab turli davlat rahbarlari, vazirlik va tashkilotlari, siyosiy arboblarning rasmiy sahifalari ijtimoiy tarmoqlardagi ijtimoiy fikrni o'z manfaatlari, siyosiy qarashlari ta'sirida ushlab turibdi.

Asosan Twitter tarmog'ida «raqamli diplomatiya» va bahslashuvchi tomonlarning munozarasiga «tviplomatiya» (Twiplomacy) atamasi bilan ta'rif beriladi.

Bugungi kunda Twitter va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy tasdiq belgisiga egalik, postlardagi yagona tartib va faollik bo'yicha AQSh, Kanada, Turkiya, Hindiston, Rossiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Eron Islom Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Fransiya va ayni kunlarda Venesuela siyosatchilari yetakchilik qilmoqda.

Datareportal.com ning statistik ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston aholisining taxminan 89% internet foydalanuvchisi hisoblanadi. Aholining 31,7% qismi esa ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishadi. (Shundan, Instagram-11,7 million, Tik-tok-2,57 million va Facebook-2,3 million).

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi 114 ta davlat organi o'z elektron portaliga ega. Ularning 79% da mobil versiyasi ham mavjudligi aholi uchun qo'shimcha qulayliklar tug'dirmoqda. Bundan tashqari, vazirlik va idoralar rasmiy veb-saytlarida ular faoliyati haqida dolzarb yangiliklardan xabardor bo'lish uchun elektron obuna tizimi joriy etilgan. Mamlakat rahbari, hukumat, qator vazirlik hamda idoralar "Facebook", "Twitter", "YouTube", "Telegram" va boshqa zamonaviy AKT tarmoqlaridan unumli foydalanmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan shu hamda boshqa chora-tadbirlar ommaviy diplomatiyaning yangi shakli - raqamli diplomatiyani rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy hujjatlar, O'zbekiston rahbarining mamlakat ichki va tashqi siyosatining turli masalalari bo'yicha qarashlari chop etilayapti. Bu boradagi transparentlik tamoyili rasmiy shaxslar hamda internet foydalanuvchilari o'rtasidagi muloqotni "virtuallashtirish" va yurtimizda yuz berayotgan jarayonlarni ikki tomonlama muhokama qilish uchun asos bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni qayd etish kerakki, raqamli diplomatiyani hayotga joriy qilish mamlakatning milliy manfaatlarini ilgari surish, tashqi siyosiy faoliyat ochiqligi hamda shaffofligini oshirish yo'lidagi dolzarb vazifalarni to'laqonli ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

Raqamli diplomatiya mamlakatimiz olib borayotgan faol tashqi siyosat, keng ko'lamli islohotlar haqida millionlab xorijliklarni ortiqcha sarf-xarajatlarsiz xabardor etish, jamoatchilikning kayfiyatini, munosabatini bilishda ayni muddao hisoblanadi.

Xalqaro maydonda raqamli diplomatiya imkoniyatlaridan foydalangan holda o'z tashqi siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mamlakatimiz quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirishi zarur:

- internet tezligini texnologik jihatdan oshirish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati, vazirliklar va davlat idoralari matbuot xizmatlari uchun brending va imijmeyking bo'yicha global darajadagi ekspertlarning ijtimoiy tarmoqda etika, psixologiya va postlar dizayni bo'yicha mahorat darslarini tashkil etish;
- O'zbekiston Respublikasining vazirlik, davlat tashkilotlari sahifalarida o'zbek tilidan (lotin yozuvida) foydalanishni to'la tashkil etish, tashqi siyosiy muloqotni ingliz tilida boshqa davlatlar siyosiy doiralari bilan ijtimoiy tarmoqlarda olib borishni tashkil etish;
- raqamli texnologiyalardan keng foydalanish hamda bu sohada mutaxassislarining zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash.
- O'zbekistonning butun diplomatik korpusi va davlat amaldorlari uchun raqamli diplomatiya bo'yicha kurslarni ishlab chiqish va tashkil etish;
- mahalliy va xalqaro auditoriya bilan ikki tomonlama aloqani tashkil etgan holda ijtimoiy tarmoqlardagi davlat organlarining rasmiy akkauntlari bo'yicha ishlarni takomillashtirish;



- raqamli diplomatiyadan keng foydalanishga oid dasturiy hujjatlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;
- AKT, sun'iy intellekt va boshqa raqamli texnologiyalarni jadal rivojlantirish kontekstida raqamli diplomatiyani rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilish;
- ijtimoiy tarmoqlarda siyosiy trollik, dezinformatsiya va soxta xabarlar tarqalishining oldini olish maqsadida aholini internet tarmog'i orqali zararli va buzg'unchi g'oyalar kirib kelishidan himoya qilishning samarali vositalari va mexanizmlarini yaratish.

Raqamli diplomatiya imkoniyatlari millionlab xorijliklarga mamlakatimiz, uning faol tashqi siyosati, davlatdagi transformatsion va keng ko'lamli o'zgarishlar haqida qo'shimcha xarajatlarsiz xabardor qilish, shuningdek, jamoatchilikning kayfiyati va munosabatini bilish imkonini beradi va O'zbekiston tashqi siyosati samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bjola C., Holmes M. Digital Diplomacy: Theory and Practice, New York: Routledge. 2015;
2. Жураев Ф.С. Цифровая дипломатия во внешней политике национального государства: Монография. – Ташкент, Институт Стратегических и межрегиональных исследований при Президенте Республики Узбекистан, 2018.—с 80;
3. “Raqamli diplomatiya va mamlakat brendi: ijtimoiy tarmoqlar o'zbek siyosatchilariga kerakmi?” <https://m.kun.uz/news/2019/02/02/raqamli-diplomatiya-va-mamlakat-brendi-ijtimoiy-tarmoqlar-ozbek-siyosatchilariga-kerakmi?>;
4. “Рақамли технологиялар ва замонавий халқаро муносабатлар” Х.П.Дусбекова Международная научно-практическая конференция Современные научные решения актуальных проблем. Сборник тезисов научно-практической конференции г. Ростов-на-Дону 2022 г. DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.7082058>;
5. “Sun'iy intellektning zamonaviy xalqaro munosabatlarga ta'siri” L.A.Amirova “XXI asr: fan va ta'lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. № 2, 2024 yil;
6. Персианов Д.И., Островский В.А. Цифровая дипломатия: истоки, цели и содержание // Скиф. 2022. №9 (73). УРЛ: <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-diplomatiya-istokitseli-i-soderzhanie> (дата обращения: 24.05.2023). (Persianov D.I., Ostrovskiy V.A. Digitaldiplomacy: origins, goals and content // Skif. 2022. №9 (73). УРЛ: <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-diplomatiya-istoki-tseli-i-soderzhanie>);
7. Цветкова Н. Феномен цифровой дипломатии в международных отношениях и методология его изучения // Вестник РГГУ. 2020. № 2, с. 37-47. (Svetkova N. The phenomenon of digital diplomacy in international relations and the methodology of its study // Bulletin of the RSUH. 2020. № 2, p. 37-47.);
8. Коньков А. Е. Цифровизация политики vs политика цифровизации // Вестник СанктПетербургского университета. Международные отношения. 2020. Т. 13. Вып. 1. С. 47–68. <https://doi.org/10.21638/spbu06.2020.104>;
9. L. Ritto, Diplomacy and its practice vs Digital Diplomacy., [http://www.diplomatmagazine.nl/2014/10/18/diplomacypractice-vs-digital-diplomacy-2](http://www.diplomatmagazine.nl/2014/10/18/diplomacypractice-vs-digital-diplomacy-2;);
10. Бердимуратова Г.М., Мирсанова Н. Эффективность внедрения цифровой дипломатии // Бюллетень науки и практики. 2022. №5. (Berdimuratova G.M., Mirsanova N. The effectiveness of the implementation of digital diplomacy // Bulletin of science and practice. 2022. No. 5) URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yeffektivnost-vnedreniya-tsifrovoy>;
11. По данным сервиса Datareportal, интернетом в Узбекистане пользуются почти 90 % населения <https://podrobno.uz/cat/obchestvo/po-dannym-servisa-datareportal-internetom-v-uzbekistane-polzuyutsya-pochti-90-naseleniya/>

